




2021- yil yanvar-iyun



2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

### Dastlabki ma'lumotlar

➤ 2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM dagi ulushi 67,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 22,3 birlikni tashkil qildi.

➤ 2021- yilning yanvar-iyunida 1312 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,4 foizga kam demakdir.



2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

**Savdo**  
39,1 %

**Sanoat**  
22,1 %

**Oishloq o'rmon va baliq xo'ligi**  
14,8 %

**Ourulish**  
6,4 %


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 513 ta, sanoatda 289 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 193 ta, qurilishda 84 ta, yashash va ovqatlanishda 69 ta, tashish va saqlashda 20 ta tashkil etilgan.

## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'ichov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	12324	14087	1763
Yangi tashkil etilgan kichik korxonava mikrofirmalar soni	birlikda	1783	1312	-471
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	69,0	67,8	-1,2
Sanoat	%	44,9	40,9	-4,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,8	98,7	0,9
Investitsiya	%	58,4	59,8	1,4
Qurilish	%	95,6	90,5	-5,1
Chakana savdo	%	94,3	92,5	-1,8
Xizmatlar	%	56,4	53,7	-2,7
Yuk tashish	%	94,8	93,0	-1,8
Yuk aylanmasi	%	95,5	87,4	-8,1
Yo'lovchi tashish	%	95,7	95,8	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,7	97,5	-0,2
Eksport	%	71,5	79,6	8,1
Import	%	61,0	55,9	-5,1



**2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona  
va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	farqi (+;-)
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1783</b>	<b>1312</b>	<b>-471</b>
<i>shahar</i>			
Guliston	373	326	-47
Shirin	51	39	-12
Yangiyer	95	71	-24
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	179	90	-89
Boyovut	171	116	-55
Sayxunobod	156	98	-58
Guliston	123	89	-34
Sardoba	130	98	-32
Mirzaobod	187	126	-61
Sirdaryo	194	185	-9
Xovos	124	74	-50



**2021- yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar b'yicha ulushi, % da**




2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – 25,0 %, Sirdaryo tumani – 14,1 %, Mirzaobod tumani – 9,5 %, Boyovut tumani - 8,8 %, Sayxunobod tumani – 7,5 %, hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- y. yanvar-iyun	2021- y. yanvar-iyun	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	<b>1783</b>	<b>1312</b>	<b>-471</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	414	193	-221
<b>Sanoat</b>	311	289	-22
<b>Qurilish</b>	112	84	-28
<b>Savdo</b>	713	513	-200
<b>Tashish va saqlash</b>	24	20	-4
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	82	69	-13
<b>Axborot va aloqa</b>	19	20	1
<b>Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	15	15	0
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	93	109	16

**Ma'lumot uchun:** 2021– yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2020-yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi(+;-)
Guliston shahar	373	326	-47
Sirdaryo tumani	194	185	-9
Mirzaobod tumani	187	126	-61
Boyovut tumani	171	116	-55

2021-yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Guliston shahrida – 326 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2021- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 22,3 birlikni tashkil etdi.



### Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra\*




2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 44,4 birlik, Oqoltin tumanida 23,0 birlik, Guliston tumanida 22,7 birlik, Sayxunobod tumanida 22,6 birlik, Mirzaobod tumanida 21,9 birlik, Yangiyer shahrida 21,4 birlik tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 14,2 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2021 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha  
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxona vamikrofimlar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori  
ko'rsatkich

- Guliston shahri
- 44,4 birlik.

O'rtacha  
ko'rsatkich

- Yangiyer shahri
- 21,4 birlik.

Eng past  
ko'rsatkich

- Boyovut tumani
- 14,2 birlik.



## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-iyun holatiga ko'ra, % da

2021- yilning yanvar - iyunida  
kichik tadbirkorlikning YaHMdagi  
ulushi 67,8 %ni tashkil qildi. (2020-  
yilning yanvar-iyunida 69,0 %).

YaHMning o'tgan yilga  
nisbatan pasayishi yirik  
korxonalar ulushining oshishi bilan  
izohlanadi.

68,4%

2019- y.

69,0%

2020- y.

67,8%

2021- y.

**2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, % da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>40,9</b>	<b>90,5</b>	<b>53,7</b>	<b>59,8</b>
<i>shahar</i>				
Guliston	66,6	99,2	33,2	34,5
Shirin	0,7	74,7	92,6	10,3
Yangiyer	56,5	99,6	80,7	94,4
<i>tumanlar</i>				
Oqoltin	53,3	99,7	70,1	70,0
Boyovut	91,7	99,6	52,3	82,8
Sayxunobod	84,0	98,9	60,4	95,0
Guliston	47,8	99,5	66,9	81,1
Sardoba	100,0	99,5	68,8	35,0
Mirzaobod	77,9	86,2	80,4	86,6
Sirdaryo	49,6	99,5	74,7	61,3
Xovos	86,2	46,8	63,5	93,8


Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**  
**Sardoba (100,0 %),**  
**Boyovut (91,7 %),**  
**Xovos (86,2 %),**  
**Sayxunobod (84,0 %),**  
**Mirzaobod (77,9 %) tumanlari**  
**va Guliston (66,6 %) shahrida.**


**Qurilishda-**  
**Oqoltin (99,7 %),**  
**Yangiyep sh.**  
**(99,6 %), Boyovut**  
**(99,6 %), Sardoba**  
**(99,5 %), Guliston**  
**(99,5 %) va**  
**Sirdaryo (99,5 %)**  
**tumanlarida.**

**Xizmatlarda-**  
**Shirin sh. (92,6%),**  
**Yangiyer sh.**  
**(80,7%), Mirzaobod**  
**(80,4 %), Sirdaryo**  
**(74,7 %), Oqoltin**  
**(70,1 %) va**  
**Sardoba (68,8 %)**  
**tumanlarida.**

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 93,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 79,6 % ini tashkil etdi.




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xovos tumanida – 100 %, Sayxunobod tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,5 %, Guliston shahrida– 83,3 %, Boyovut tumanida – 79,8 % ni, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – 2,2 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 143,5 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 55,9 % ini tashkil etdi.



### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xovos tumanida – 100 %, Oqoltin tumanida – 100 %, Sayxunobod tumanida –100 %, Yangiyer shahrida – 100 %, Sardoba tumanida – 100 %, Guliston tumanida – 78,5 %, Mirzaobod tumanida – 78,4 %, Guliston shahrida – 75,6 % ni. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 0,9 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar - iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 1951,9 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




### 2021- yilning yanvar - iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (383,5 mlrd. so'm), Guliston shahrida (327,2 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (220,3 mlrd. so'm), Sayxunobod tumanida (208,2 mlrd. so'm) tuman (shahar) lar hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (13,7 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 40,9 foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumanida (100 %), Boyovut tumanida (91,7 %), Xovos tumanida (86,2 %), Sayxunobod tumanida (84,0 %), Mirzaobod tumanida (77,9 %), Guliston shahrida (66,6 %) ni tashkil etdi. Shirin shahrida (0,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 1559,6 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 92,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,5 foizni tashkil qildi.



### **2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Sirdaryo tumani (252,1 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (166,5 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (131,8 mlrd. so'm), Sardoba tumani (77,2 mlrd. so'm), Oqoltin tumani (76,4 mlrd. so'm), va Boyovut tumani (72,7 mlrd. so'm) tuman va shaharlar hissasiga to'g'ri keladi.



2021 – yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1208,7 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 90,5 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,5 foizni tashkil qildi.




### **2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (404,4 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (113,5 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (116,8 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (102,1 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (94,4 mlrd. so'm) hamda Oqoltin tumanida (95,5 mlrd. so'm) tuman va shaharlarda qayd etildi.


2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 1057,7 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 53,7 % ini tashkil qildi. 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan oʼsish surʼati 119,0 % ni tashkil qildi.



## 2021- yilning yanvar-iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Guliston shahrida (301,7 mlrd. soʻm), Sirdaryo tumanida (195,9 mlrd. soʻm), Yangiyer shahrida (120,5 mlrd. soʻm), Mirzaobod tumanida (75,0 mlrd. soʻm), Xovos tumanida (63,1 mlrd. soʻm), Boyovut tumanida (56,5 mlrd. soʻm) tuman va shaharlar hissasiga toʼgʼri keladi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,0 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 98,1 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 87,4 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 91,5 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,8 foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,1 foizga oshishiga olib keldi.


2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,5 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan - 99,8 foizga pasayish kuzatildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalardan tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **546** ta respondentlar ishtirok etdi.



**2021- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,2 % (45 ta), sanoatda – 11,7 % (64 ta), qurilishda – 11,5 % (63 ta) , savdoda – 42,9 % (234 ta), xizmatlar sohasida – 25,6 % (140 ta) ni tashkil etdi.




### **2021- yil II choragida kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**      **Sanoat**      **Qurilish**      **Savdo**      **Xizmatlar**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 33,3 % ni, savdoda 32,9 % ni, xizmatlarda 31,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda 71,4 % ni, , savdoda 59,0 % ni, sanoatda 56,3 % ni tashkil etdi.




**2021- yil II choragida kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi Sanoat**

**Qurilish**

**Savdo**

**Xizmatlar**



2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin uch oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 47,0 %, xizmatlarda 43,6 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 42,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin uch oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda 60,3 % ni, sanoatda 57,8 % ni, savdoda 47,9 % ni tashkil etdi.



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: Sh.O'razaliev.

Tel.: (67) 236-86-16